ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI

Abdullayeva Feruza - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Iskandarova Nodira - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasiga qaratilgan. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining ahamiyati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Ibn Sino o‘zining baxt-saodat haqidagi falsafiy qarashlarini ilgari surar ekan, unda haqiqiy baxtning timsoli nimada namoyon bo‘lishini tushuntirib beradi. Faylasuf o‘zining ko‘p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o‘ynadi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari bilan birgalikda fanlar tasnifiga munosabati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Falsafiy qarashlar, fizika, axloq masalasi, vujud, tuzilish, tafakkur, insonparvarlik notiq, muommolar, ilm, kitoblari.

Ibn Sino Aristotelning insonga berilgan "inson - aqlli hayvon" degan ta'rifini qo‘llab, inson -"hayvoni notiqa" deb ta'riflaydi. "Inson - gapiruvchi, so‘zlovchi hayvon" deb yozadi. Ibn Sino "Insonni hayvonot olamining shohi,-deb biladi, chunki unda nutq bor." Aynan mana shu nutqi tufayli inson boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Hozirgi zamon antropologiya fani ham allomaning bu boradagi fikrlarini tasdiqladi. Haqiqatdan ham insondagi 1560 belgi hayvonot olami vakillari belgisi kabi muvofiqdir. Masalan, shimpanze va insonning 396 xossalarini bir-biriga mos kelsa, gorilla va inson orasidagi bu moslik belgilari - 305 tani tashkil etadi. Ammo 312 ta shunday xossa mavjudki, bu xossalar faqatgina insonga xos. Inson va yuqori hayvon orasidagi umumiylik quyidagilarda kuzatiladi:

- Ozuqqa aynanligi;
- Qon guruhlarining o‘xshashligi;
- Deyarli bir xil umr kechirish davomiyligi;
- Embrional hayot davomiyligini bir xildagi davomliligi.

Insonni hayvondan ajratib turuvchi belgi insondagi tafakkur, aql, fahm-farosat va beqiyos kamolot uchun intilishidir. Insonning o‘z-o‘zidan ko‘ngli to‘ladimi, "men" menni tushuna oladimi? "Men" menni qiynamaydimi? Inson o‘zi o‘ylagan inson sifatlariga mosmi? Unda nega jamiyatda ma'naviy qashshoq insonlar, o‘g‘rilar, qalloblar, tekinxo‘rlar, engiltaklar, dilozorlar mavjud?

Haqiqatdan ham inson ikki olam - moddiy va ma'naviy-ruhiy olam yagonaligi mahsuli, bir butunligidir.

Ibn Sinoning boshqa allomalarda farqi shundaki, bu ikki olam sarvari bo‘lgan insonni jismoniy, moddiy tomondan salomat; ikkinchi ma'naviy-ruhiy tomondan kamolotga erishish orqali dunyoni saqlab qolishni, olamni yashnatishni o‘z vaqtidayoq anglab, bu uchun kurashishni o‘z asridayoq boshlab bergani.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo‘lim - metafizika, fizika, logika-mantiqdan tashkil topgan, metafizika - ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiatshunoslik masalalari, jism, moddani o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga oladi; mantiq to‘g‘ri fikrlash san'ati, aqliy bilish shakllarini o‘rganadi. Umumiy falsafiy masalalar nazariy va amaliyga bo‘linib, o‘z navbatida, ularning har biri qator ilmlarni o‘z ichiga oladi

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari asosan uchta yirik tizimdan tashkil topganligi uchun uning barcha falsafiy qarashlari nazariy va amaliy jihatdan Ibn Sinoning eng mashhur asari "Kitob ash-shifo"1 da o‘z ifodasini topgan. U 3 ta katta qismdan, ya'ni mantiq, tibbiyot va ilohiyotdan iborat edi. Ibn Sinoning maqsadi hammaga manzur bo‘ladigan "Mashriq hikmati" ni yaratish edi2. Barcha nazariyalarning asosida ilm yotadi. Tashqi ko‘rinishdan umumiy nazariya aqldan kelib chiqadi. Aql esa ilohiy olamdan, farishta vositasida yetkaziladi. Bu dalilga ko‘ra, farishtani bilish jahonni bilish asosi hamda undagi inson o‘rnini belgilash ham ilm vazifasiga kiradi. Shundan kelib chiqqan holda ilohiy ilmlarni tadqiq etish zaruriyatdir.

Ibn Sinoning ilmiy merosida boshqa muammolar bilan bir qatorda ilm va axloqiylik birligi alohida o‘rin egallaydi. U tomonidan "Risala fi-l-ahd" ("Burch

1 Abu Ali ibn Sinoning asosiy falsafiy asari. Aslida 22 kitobdan iborat bo‘lgan, bizgacha 18 ta kitobi yetib kelgan.

Insoniy aql sharafiga aytilgan madhiyalar, uning yuksak axloqiy sifatlarini Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining ijtimoiy-falsafiy tafakkuridagi rasionalizm, hurfikrlilik va insonparvarlik tarixida yangi hodisa emas, deb aytish mumkin. Biroq mazkur risolaning qimmati shundaki, ushbu an'ana o‘zining yorqin, bir joyga to‘plangan ifodasini topgan, aniq ifodalangan etikaviy-gnoseologik fenomen sifatida maydonga chiqadi.

Albatta, o‘sha davrdagi Sharqning barcha mutafakkirlari va allomalari kabi Ibn Sino ham bu masalaga idealizm va diniy pozisiyadan yondoshib, insoniy ilm va axloqiylikning manbai deb donishmandlik va Yaratuvchining qudratini e'tirof etadi. Shunga qaramay, allomaning fikrlari diniy aqidalar bilan mos kelmaydi, negaki, uning fikricha, xudoning ijodiy quvvati uning xohish va irodasida emas, balki qanday bo‘lmasin mumkiniyning voqelikka zaruriy aylanishida ifodalanadi. Shuning uchun hech nimadan nimagadir, imkonsizdan imkoniyga aylanish Yaratuvchining vakolatiga kirmaydi. Alloma qarashlarining bunday yo‘nalganligi ko‘plab tadqiqotchilarga, jumladan, E. Renanga, M. Tyurkerga, A. Sayiliga va boshqalarga tanish bo‘lgan.

Chunonchi, M. Tyurker faylasuf-donishmandlar, jumladan, Ibn Sino Yaratuvchining vazifasi erkin iroda va mustaqil xohish bo‘yicha yaratishda mujassamlashmaganligini tamomila e'tirof etadilar, deb yozadi4.

Ibn Sinoning farazicha, inson Xudo tomonidan zaif mavjudot sifatida yaratilgan. Shunga qaramay, u barcha mavjudotlardan o‘zining mukammalligi, tana tuzilishi va tashqi ko‘rinish tabiatiga ko‘ra ajralib turmasin, unga barcha tirik mavjudotlar orasida eng markaziy o‘rin taalluqlidir.

Mutafakkiming asarlarida, jumladan, "Tadbir-e manzil" da inson tabiati avval boshdan fazilatli yoki axloqsiz bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi muhim fikr ta'kidlanadi. Odamlar avvaldan tayyor shaxsiy sifatlar, odatlar va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmaydilar, balki ularni shaxsiy tajriba, o‘ziga o‘xshashlarning tajribasi, ilgarigi avlodlarning an'analari, ta'lim va tarbiya jarayonida zaminiy shiddatli hayot mobaynida shakllantiradilar. Ta'lim-tarbiya yo‘li bilan boshqa odamlar ta'siri ostida odam yoki maqtaluvchi axloqiy fazilatlarni orttiradi, yoki "yaramas do‘stlar", ya'ni salbiy odat, fe'l-atvor va his-tuyg‘ularning sub'ektiga aylanib qoladi. Bu o‘rinda qaysidir ma'noda qonun kuchiga ega bo‘lgan odatning ahamiyati ham kam emas. Bu shunday holatki, odam o‘zida maqtaluvchi ijobiy fazilatlarni shakllantirishi qanchalik qiyin bo‘lsa, shakllanib bo‘lgan yomon salbiy sifat va odatlardan qutulish shunchalik mushkul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //"SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

2. .Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo‘shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

3. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

4. https://cyberleninka.ru/article/n/ibn-sino-insonning-jismoniy-va-ruhiy-kamoloti-haqida-goyalari